

---

## Farg'ona shahar hokimligi tomonidan 1-sektor hududidadagi mahallalarda sayyor qabullar o'tkazilmoqda

Farg'ona shahar hokimligi tomonidan "Mustaqillik" mahallasida jismoniy va yuridik shaxslar uchun sayyor qabul o'tkazildi. Unda shahar hokimi Vosiljon Nazarov va hokim o'rinbosarlari ishtirok etdi. Unda 40 nafardan ortiq fuqarolardan tushgan murojaatlar mas'ul rahbarlar ishtirokida o'rganildi. 15 ta murojaatlar shu yerning o'zida ijobiy hal qilindi.

Murojaatlarni joyida o'rganib chiqish va natijasi bo'yicha fuqaroga ma'lum qilish uchun masalaga daxldor xodimlar, korxonalar, tashkilot va bo'limlarga tegishli topshiriqlar berildi.

2022-09-08 10:34:54